

Abduraxmonov G. Z. - Фаргона давлат техника университети “Ижтимоий фанлар ва спорт” кафедрасининг катта ўқитувчиси, Фаргона шаҳри, Ўзбекистон Республикаси.

Абурахмонов Г.З. - старший преподаватель, кафедры «Общественные науки и спорта» Ферганского государственного технического университета, г. Фергана, Республика Узбекистан.

Abduraxmonov G. Z.- senior Lecturer in the Department of Social Sciences and Sports at Fergana State Technical University, Fergana, Republic of Uzbekistan.

**JAMIYATNI G'OYAVIY BIRLASHUVIDA “MILLIY
TIKLANISHDAN – MILLIY YUKSALISH SARI” TAMOIYILINING
O'RNI**

**РОЛЬ ПРИНЦИПА «ОТ НАЦИОНАЛЬНОГО ВОЗРОЖДЕНИЯ
К НАЦИОНАЛЬНОМУ ПОДЪЕМУ» В ИДЕЙНОМ ОБЪЕДИНЕНИИ
ОБЩЕСТВА**

**THE ROLE OF THE PRINCIPLE "FROM NATIONAL
RENAISSANCE TO NATIONAL RISE" IN THE IDEOLOGICAL
UNITING OF SOCIETY.**

Annotatsiya. *Ushbu maqolada jamiyatning g'oyaviy birlashuvida “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” tamoyilining o'rni va ahamiyati tahlil qilingan. Muallif O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy islohotlar, ularning g'oyaviy asoslari hamda milliy yuksalishga xizmat qiluvchi ijtimoiy birdamlik zarurligini asoslab beradi. Shuningdek, maqolada jamiyatni yangilash jarayonida an'analar va zamonaviy yondashuvlar o'rtasidagi muvozanatni topish, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, yoshlarni fidoyilik va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash zarurati yoritib berilgan. Milliy tiklanish va milliy yuksalish konsepsiyasining jamiyat birlashuvidagi strategik o'rni chuqur tahlil qilingan.*

Аннотация. В данной статье рассматривается роль и значение принципа «От национального возрождения – к национальному прогрессу» в идейном объединении общества. Автор обосновывает необходимость социальной солидарности и идейного единства для достижения национального прогресса в контексте проводимых в Узбекистане социальных, экономических и политических реформ. Также в статье подчеркивается важность нахождения баланса между традициями и современными подходами, развития гражданского общества, воспитания молодежи в духе патриотизма, преданности и нравственности. Внимание уделено стратегическому значению концепции национального возрождения и национального прогресса в процессе общественного единения.

Abstract. This article examines the role and significance of the principle "From National Revival to National Progress" in the ideological unification of society. The author substantiates the necessity of social solidarity and ideological unity for achieving national progress in the context of the ongoing social, economic, and political reforms in Uzbekistan. The article also emphasizes the importance of finding a balance between traditions and modern approaches, developing civil society, and educating young people in the spirit of patriotism, loyalty, and morality. Attention is paid to the strategic significance of the concept of national revival and national progress in the process of social unity.

Kalit soʻzlar: Gʻoyaviy birlashuv, milliy tiklanish, milliy yuksalish, ijtimoiy birdamlik, fuqarolik jamiyati, ijtimoiy-siyosiy islohotlar, innovatsion rivojlanish, anʼanalar va zamonaviylik muvozanati, yoshlar tarbiyasi, fidoyilik va vatanparvarlik, milliy taraqqiyot

Ключевые слова: Идеологическое единство, национальное возрождение, национальный подъем, социальная солидарность, гражданское общество, социально-политические реформы,

инновационное развитие, баланс традиций и современности, воспитание молодежи, самоотверженность и патриотизм, национальное развитие.

Keywords: *Ideological unity, national revival, national rise, social solidarity, civil society, socio-political reforms, innovative development, balance of traditions and modernity, youth education, dedication and patriotism, national development*

O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida jamiyatni birlashtiruvchi yangi g'oyaga ehtiij ortib bormoqda. Ma'lumki, jamiyatlar taraqqiyoti unda yashovchi insonlarning ma'lum maqsad asosida birlashuvi va bu maqsadni amalga oshirish uchun barcha kuchlarni safarbar etilishi bilan bog'liq bo'lgan. Bugungi kunda jamiyatimizning g'oyaviy birlashuvi va oliy maqsad sari birgalikda harakat qilishi yuksak natijalarni belgilab beradi. Jamiyatimizda yashovchi millati, dini, irqi va ijtimoiy kelib chiqishidan qat'i nazar har bir inson jamiyatning umumiy oliy maqsadi uchun mas'uliyatni his qilishi, unga nimadur bilan hissa qo'sha olishi talab etiladi. Shu bois jamiyatimizda davlat siyosati darajasiga ko'tarilmagan, mafkuralashtirilmagan va siyosiy qurolga aylanmagan, shunchaki, jamiyatni birlashtiruvchi, ma'lum maqsad sari yo'naltiruvchi, barchani ehtiyoj va manfaatlarini inobatga oluvchi aniq, real va hayotiy birlashtiruvchi g'oyaga ehtiyoj paydo bo'lmoqda.

Jamiyat hayotida shunday davrlar bo'ladiki, o'z umrini yashab bo'lgan eski tuzum qonun-qoidalarini yangicha asosda o'zgartirish, barcha sohalarda keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirish zarurati eng muhim ehtiyoj, kerak bo'lsa, hayot-mamot masalasi sifatida kun tartibiga chiqadi. Bugun jamiyatimizda ham olib borilayotgan islohotlar muhitida, innovatsion o'zgarishlarga mos ravishda ijtimoiy birlashuv g'oyasiga zarart vujudga keldi. O'zgarishlar jarayonida xalqning ehtiyoj va manfaatlari, xoxish va istaklarini qamrab olgan va ularni birlashtirgan, yagona maqsad sari yo'naltirgan va yuksak marralarni zabt etuishga safarbar etuvchi kuch orqali fidoyi, sadoqatli, vatanparvar va mehnatsevar insonlar birlashmasni shakllantirish ustuvor

vazifaga aylandi. Zero, “jamiyatimizda aholi, ayniqsa, yosh yigi-qizlarimizning ma’naviy va ma’rifiy saviyasini doimiy yuksaltirish – birinchi darajali ahamiyatga egadir. Shu bois, “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” degan dasturiy g’oya asosida, yoshlarni ona yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularda tashabbuskorlik, fidoyilik, axloqiy fazilatlarni shakllantirish – o’ta sharaflı vazifadir”¹. Shunday ekan, jamiyatda g’oyaviy birlashuvni shakllantirish va iqtisodiy barqarorlikka erishish dolzarb vazifalardan biridir. Buning uchun davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” degan dasturiy g’oya atrofiga birlashish, hamjihat bo’lish iqtisodiy rivojlanishni belgilab beradi.

Mazkur jarayonda ortodoksal qarashlar, an’analar va qadriyatlarni yangilash, ularni modernizatsiya qilish talab etiladi. Turli manfaat va qiziqishlarga asoslangan, transformatsiya jarayonlarini tabiiy hol sifatida qabul qiladigan jamiyat o’ziga tanqidiy nazar bilan qarashga, yo’l qo’yilgan xatolarni to’g’rilashga moyil bo’ladi. Mutlaq ortodoksal va mutlaq noortodoksal jamiyat yo’q, har bir tizimda ularni, muayyan darajada, uchratish, kuzatish mumkin. Jamiyatdagi yangilanish, innovatsion rivojlanish ortodoksal yondashishlardan, an’analardan voz kechishni, mavjud kamchiliklarni ochiq tan olib ularni to’g’rilashni, ijtimoiy munosabatlarni yangi transformatsiya bosqichiga ko’tarishni taqozo etadi. Bu o’rinda yangilik bilan eskilik, novator bilan retrograd o’rtasida bahs, tortishuv va kurash ketishi tabiiy holdir.

Milliy tiklanish, taraqqiyot va yuksalish juda keng, chuqur, murakkab tarixiy jarayon bo’lib, u millatimiz hayotining hamma sohalarni: iqtisodiyotni ham, siyosiy faoliyatni ham, ma’naviyatni ham, ilm-fan, til, tarix, urf-odatlar, hunarmandchilik, me’morchilikni ham, inson kamoloti bilan bevosita daxldor barcha masalarni o’z ichiga qamrab oladi. Milliy tiklanishga birdaniga erishib bo’lmaydi, u uzoq davom etadigan, ko’p yillarni o’z ichiga qamrab oladigan murakkab davrdir. Zero, “ ushbu davrda to’plagan tajribamiz bir haqiqatni

¹ Мирзиёев Ш. М. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари... –Б. 35.

yaqqol isbotlab bermoqda: taraqqiyotga – faqat mashaqqatli va jasoratli mehnat orqali erishiladi. Shu bois, pandemiya, dunyodagi chuqur iqtisodiy va siyosiy inqirozlar, ziddiyatlarga qaramasdan, xalqimizning qahramonlarcha mehnati bilan erishgan ayrim yutuqlarimizni aytib o'tishni o'rinli"², deb bilaman.

Fuqarolik jamiyatini barpo etish borasida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub islohotlar xalqimizning milliy o'zligini anglashga bo'lgan intilishlarini rag'batlantirmoqda. Shu ma'noda, milliy taraqqiyot va ma'naviy yuksalish jarayoniga ta'sir etuvchi ob'yektiv shart-sharoitlar hamda sub'yektiv omillarni ilmiy asosda o'rganish masalasi bugungi kunda tadqiqotchilarning oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

Zamonaviylik hech qachon o'zidan o'zi, osonlik bilan real voqelikka aylanmagan, ijtimoiy hayotning o'zgaruvchan, dinamik xususiyati esa yangilikni keskinroq, shiddatliroq, hatto, ma'lum guruhlar manfaati va istaklariga zid tarzda faolroq bo'lishga undaydi. Zamonaviylik va innovatsiyaning bunday faolligi zararli emas, ammo ularning ijtimoiy-tarixiy imkoniyatni qo'ldan boy berib, nafaolligi, xotirjamlikka, o'zini o'zi ulug'lashga berilishi jamiyatga qimmatga tushadi.

O'zbekistonda milliy taraqqiyotning yangi bosqichi Sh. M. Mirziyoyev nomi bilan bog'liqdir. Sh. M. Mirziyoyev o'tgan o'n yilliklarni tanqidiy tahlil qilish, shu asosda jamiyat hayotini yangilash konsepsiyasini taklif etdi. Sotsiolog V. Pareto to'g'ri qayd etganidek: "Jamiyatning bir holatdan boshqa holatga o'tishi birdan ro'y bermaydi. Bunda jonli mavjudotlarning evolyusion rivojlanish jarayonlariga monand uzoq davom etadigan o'zgarishlar kechadi"³.

Davlatimiz rahbari 2016- yil 8- sentabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi nutqida Birinchi Prezident boshlab bergan islohotlarni "qat'iyat bilan davom ettirish"ga ahd

² Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2023 йил учун Мурожаатномаси // <https://review.uz/oz/post/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoyevning-2023-yil-uchun-murojaatnomasi-toliq-matn>.

³ Парето В. Трансформация демократии / Западно европейская социология XIX – начала XX веков. – Москва: Изд. Международного Университета Бизнеса и Управления, 1996. – С. 155.

qilgani ko'zga tashlanadi. Shuningdek, islohotlarni yangi bosqichga olib chiqish, iqtisodiy taraqqiyotga erishish, jamiyatda birlik va hamjihatlikni shakllantirish, mamlakatni rivojlangan davlatlar qatoriga qo'shish, jamiyatni zamonaviylashtirish, so'z erkinligi va inson huquqlarini oliy qadriyat darajasiga ko'tarishni ham maqsad qilganligi ham e'tirofga sazovordir.

So'nggi yillarda ko'plab islohotlar amalga oshirildi, tom ma'noda o'zgarishlar, yangilanishlar boshlandi. Buni xalqaro maydonda rivojlangan davlatlar tomonidan e'tirof etilayotganligidan ham bilsa bo'ladi. Biroq, jamiyatda ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlar hamda islohotlarni amalga oshirish bilan birga ma'naviy-ma'rifiy sohada ham, mafkuraviy jihatdan ham yangiliklar, o'zgarishlarni amalga oshirish kerak edi. Chunki, hech bir mafkura abadiy emas, har bir mafkurani umri, yo'lining oxiri bo'lgani kabi, eski milliy g'oyamizning ham ta'sir kamayib borayotgan edi. Bunday jarayonda davlatimiz rahbari tomonidan milliy tiklanishdan milliy yuksalish tomon borayotganligishini o'zida jamlagan yangi ideologik ta'sir mexanizmlarini ishlab chiqish taklifini ilgari surildi. Natijada ijtimoiy birlashuvga qaratilgan, jamiyatni g'oyaviy birlashtirishni maqsad qilgan yangi milliy yuksalish konsepsiyasi ishlab chiqildi. Zero, "bu borada mamlakatimiz fuqarolarining huquq va erkinliklarini, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etilishini ta'minlashni, O'zbekiston Respublikasining suvereniteti, xavfsizligi va hududiy yaxlitligini muhofaza etish yuzasidan zarur chora-tadbirlar ko'rishni, Respublika oliy hokimiyat va boshqaruv organlarining bahamjihat ishlashini ta'minlashni, yaqin va uzoq qo'shni davlatlar bilan o'zaro manfaatli hamkorlik aloqalarini rivojlantirishni eng asosiy vazifa deb hisoblayman"⁴.

Yuqoridagi so'zlarda Prezidentning mustaqil rivojlanish yo'liga sodiq ekani, o'tgan yillarda boshlangan islohotlarni davom ettirishni niyat qilib

⁴ Мирзиёев Ш. М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз.... – Б. 21.

qo'ygani namoyon bo'ladi. Ammo davlatimiz rahbari ob'yektiv va sub'yektiv sabablar bois hal qilinmay kelgan muammolarni tanqidiy tahlil qilish orqali milliy taraqqiyotni yangi bosqichga ko'tarishni maqsad qildi va o'zining har bir murojaatida xalqni birlashish va hamjihat bo'lmish, ijtimoiy birdamlikka ugndadi. Uning barcha sa'y-harakatlarida, e'lon qilinayotgan Farmonlari va Qarorlarida ushbu yondashuv yaqqol ko'rinadi. O'tgan o'n yilliklarda shakllangan to'rachilik, xalqdan uzoqlashish, amaldorlarning o'z huzur-halovati uchun yashashi, poraxo'rlik, korrupsiya, kvaziskorxonalar va birlashmalar tashkil etish, davlat mablag'larini o'marish, "Men senga tegmayman, sen menga tegma" tarzida ishlash, dabdababozlik, sanoxonlik, laganbardorlik kabi demokratik jamiyatga muvofiq kelmaydigan, g'ayriqonuniy odatlar keskin tanqid ostiga olindi. Bunday odatlar hayotda aniq ko'zga tashlanayotgan bo'lsa-da, lekin yillar davomida ularni tag-tomiri bilan yo'q qilish mexanizmlari yaratilmadi. Jamiyatda milliy yuksalish jarayonini boshlab berish bilan birga, so'z erkinligini himoya qilinishi va davlat tomonidan inson huquqlarini kafolatlanishi bilan jamiyatda jamoatchilik nazorati ham kuchayib, real kuchga aylanib bordi. Bu ham jamiyatning ijtimoiy birlashuvining muhim asosiga aylandi.

Adabiyotlar:

1. Мирзиёев Ш. М. Миллий тикланишдан — миллий юксалиш сари... —Б. 35.

2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2023 йил учун Мурожаатномаси // <https://review.uz/oz/post/uzbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoyevning-2023-yil-uchun-murojaatnomasi-toliq-matn>.

3. Парето В. Трансформация демократии / Западно европейская социология XIX — начала XX веков. — Москва: Изд. Международного Университета Бизнеса и Управления, 1996. — С. 155.

4. Мирзиёев Ш. М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз.... — Б. 21.